



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

MUSTAQILLIK YILLARIDA KO‘P MILLATLI VA KO‘P KONFESSIYALI MAHALLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Raximov Ilxomjon Azimjonovich¹ Abdullajonova Nafisaxon² Komilova Sitoraxon³

Farg‘ona Politexnika instituti o‘qituvchisi¹

Yengil sanoat va to‘qimachilik fakulteti 94-19 guruh talabalari^{2,3}

INFO:

Qabul qilindi: 09.03.2022

Ko‘rib chiqildi: 10.03.2022

Chop etildi: 11.03.2022

Kalit so‘zlar: Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi, Oliy Majlisga murojaatnoma, “yangi O‘zbekiston- yangi mahalla”, konfessiyali mahallalar, millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik, milliy madaniy markazlar, umuminsoniy qadriyatlar,mahallalar faoliyatini baholashning indikatorlari,“mahallabay” ishslash tizimi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda mahalla tizimini isloh qilishning dolzarb muammolari, mustaqillik yillarida ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va demokratik omillari,“mahallabay” ishslash tizimining mazmun-mohiyati haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](#)

Kirish. Mamlakatimizdagi mustaqil rivojlanish sharoitida ro‘y berayotgan chuqur ijtimoiy o‘zgarishlar o‘zbek xalqi mentalitetida yangi milliy davlatchilikni qaror toptirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini modernizatsiyalash zarurligini hayotning

o‘zi taqozo etmoqda. Demokratik tamoyillardan biri bo‘lmish diniy bag`rikenglik nafaqat davlatlar, balki individual shaxslar darajasida ham tobora yaqqol ravishda yuzaga chiqib bormoqda. Shu bilan birga shuni ham alohida ta’kidlashim o‘rinliki, bugungi globallashuv sharoitida dunyo siyosatining muhim omillaridan bo‘lgan millatlararo totuvlik masalalarini bugungi kun talablariga moslash, shuningdek, Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millat va elatlardan bor-yo‘g‘i 200 ga yaqini o‘z davlatchiligiga egaligi va bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta’minalash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o‘rganib borish, ijtimoiy-siyosiy hayotda buni doimo e’tiborga olish kerakligi, jahon tajribasida millatlararo totuvlikni ta’minalashdagi yuzaki yondashuvlar jiddiy muammolarga sabab bo‘lib, og‘ir oqibatlarga olib kelishini tarixni o‘zi ko‘rsatdi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasidagi vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu boradagi faoliyatimizning o‘zagini “Bag`rikenglik va millatlararo totuvlik-barqaror taraqqiyot omili” degan tamoyil tashkil etmoqda. BMT Bosh Assambleyasini tomonidan Xalqaro do‘slik kuni deb belgilangan 30-iyul sanasini “Xalqlar do‘sligi kuni” deb e’lon qilinishi Mustaqil O‘zbekistonda ham katta bag`rikenglik bilan ma`qullandi [1.58.b]

Tolerantlik turli etnik guruhlarga mansub kishilarning turmush tarziga, fe’l-atvoriga, g‘oyalari va diniy qarashlariga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi. Tolerantlik to‘g‘risida zamonaviy konsepsiya yaqinda paydo bo‘lib, uning shakllanishida Yunesko tashkilotining o‘rni muhim ekanligini ta’kidlash kerak. [2.34.b]

Azal-azaldan O‘zbekiston turli millat vakillari birgalikda qo`ni-qo`shnichilik munosabatlari doirasida bir oila bo`lib umurguzaronlik qilib kelmoqda. Bu borada ko‘p millatli mahallalar faoliyatini tadqiq qilar ekanmiz, Toshkent shahridagi Tolariq mahallasi misolida ko‘p millatli xalqlar umumiy aholining 77,3 % ini tashkil etib, ushbu mahallada Siz yashayotgan mahallada boshqa millat vakillari bilan qanday munosabatni ma’qul ko‘rgan bo‘lardingiz? degan so‘rovnoma mahalla vakillarining deyarli ko‘pchiligi turli millat vakillari o‘rtasidagi munosabatlarda yaqin qarindoshchilik, do‘stona, umumfuqaroviy munosabatlar (93,6%) bo‘lishi kerak degan fikri tarafidori bo‘lishganligi e’tiborga molikdir.[3.147.b] Shuningdek, Farg‘ona viloyatiga qarashli Yangi Marg‘ilon shaharchasida ham aholining juda ko‘p qismi turli millat vakillariga mansub bo‘lib, bir necha yillardan beri bir oila va tolerantlik g‘oyalari asosida tinch-totuv yashab kelishayotganligi ham O‘zbekistonda tolerantlik turmush tarzimizning asosiy tamoyili ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi kunda Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan butun Respublikamizda millatlararo totuvlikni ta’minalash yuzasidan bir qator farmonlari qabul qilingan bo‘lib, ushbu farmonlar millatlararo munosabatlarni demokratik printsiplar asosida shakllanishiga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Masalan, 2017 yil 19 mayda “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalari qo‘mitasi” tashkil etilganligi va shu bilan birga unda davlat organlarining Respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do‘slik jamiyatlar bilan o‘zaro aloqasi va hamkorligini ta’minalash; mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlardan vakillarining o‘ziga xos milliy an‘analari, urf-odatlari va rasm-rusumlarini asrab –avaylash va rivojlantirishga ko‘maklashish singari vazifalarda jamiyatda tolerantlik va insonparvarlik g‘oyalari yuksaltirish, ko‘p konfessiyali mahallalarning o‘zaro hamjihatligini, ular o‘rtasidagi o‘zaro “Yagona Vatan- yagona O‘zbekiston” degan umuminsoniy g‘oyalarni yuksaltirish, ular uchun teng huquqli

o‘zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi to‘g‘risidagi muhim vazifalar belgilab berilganligi e‘tiborga molikdir.

Ushbu masala muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020 –yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomalaridan ham alohida o‘rin egallagan bo‘lib, unda “Jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqamiz. Barchangizga ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30- iyul Xalqaro do‘stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois, ushbu sanani O‘zbekistonda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilashni taklif etaman” deya alohida ta`kidlangan edi.[www.gazeta.uz].

Bugun O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo‘lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Mustaqillik yillarda milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoni berildi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markaz, O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do‘stlik jamiyati faoliyati O‘zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari, an’ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. [6.70.b]

O‘zbekistondagi 10 mingdan ortiq mahallalar turli millat va turli diniy konfessiya vakillaridan iborat juda katta oila bo‘lib, mamlakat tarixida hali biron marta o‘zga xalqlarni behurmat qilish kabi illatlar uchramaganligi xalqimizning bag‘rikeng millat o‘zi qanchalik o‘zbek xalqi bag‘rikeng mamlakat ekanligidan dalolat beradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan mahallani “demokratiya darsxonasi” deb ta’rif bergenlarida ko‘p millatli mahallalar faoliyatini yanada takomillashtirishning demokratik, umuminsoniy prinsiplari nazarda tutilgan edi. Mahalla tizimi bag‘rikenglik timsoli sifatida joylarda o‘tkaziladigan bayramlar yoki tadbirlarda ushbu tamoyilga juda katta e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Zero, “Yangi O‘zbekiston” o‘z oldiga o‘zaro manfaatli, teng huquqlilik,adolatlilik prinsiplariga asoslangan - har bir fuqaro milliy ko‘pchilikka yoki milliy ozchilikka mansubligidan qat’iy nazar yuridik maqom asosida emin-erkin yashashi kerakligini shuningdek, «Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!» degan ezgu g‘oya atrofida birlashishni talab qiladi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi va Respublika “Mahalla” xayriya Jamoat fondi bilan hamkorlikda “O‘zbekiston ko‘p millatli ahil oila” mavzusida ilmiy-amaliy seminar va davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, Toshkent shahridagi “Mingo‘rik” “Afrosiyob” kabi mahallalarga tajribali, tashkilotchi o‘zga millat vakillaridan raislar saylanishi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik munosabatlari bag‘rikenglik asosida yo`lga qo`yilganligidan dalolat beradi.[2.38.b]

“Mahalla boshqaruvini amalga oshirishda, aynan mahallada istiqomat qiluvchi turli millatga mansub va har xil dinlarga e‘tiqod qiluvchilarining ijtimoiy-psixologik dunyo qarashlari- diniy bag‘rikenglik tamoyili asosida e‘tiborga olinishi kerak. Ularning milliy va diniy qadriyatlariga asoslangan tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazishda mahalla bosh-qosh bo‘lishi lozim. Bunda “mahalla

– barchamizniki”-degan tamoyil asosida faoliyat olib borish maqsadga muvofiqdir. Jamiyatni demokratik rivojlantirishda fuqarolarning manfaati to‘liq e’tiborga olinishi lozim. Buning uchun mahalla boshqaruvi vakillari denga tegishli umumiy ma’lumotlar, rasmiy tushunchalar bilan tanishgan bo‘lishi kerak.”[5.45.b]

Shu o‘rinda mustaqillik yillarda ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning takrorlanmas jihatlariga e’tibor berildiki, bu jarayonlarda o‘zga millat vakillarining har tomonlama erkin yashab faoliyat olib borishlari uchun yetarlicha huquqiy shart- sharoitlar yaratilganligini ham ta`kidlash lozim.

O`tkazilgan so`rovlar chog`ida olingen ma’lumotlar respondentlarning har ikkitasidan biri (51,6%) deyarli mahalla aholisining o‘z mahallasini ko‘p millatli deb ta’kidlanganligini ko‘rsatdi.[3.145.b] Tadqiqotlar davomida so`rovda qatnashgan respondentlarning ko‘pchiligi (88,0%) o‘zlarining boshqa millatga mansub bo‘lgan qo‘snilari bilan munosabatlarini ijobjiy baholashdi.[3.146.b] Tadqiqot ma’lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, mahalladagi tinchlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik tamoyillari fuqarolik kelishuvini mustahkamlashdagi o‘rnii juda muhimdir.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, 2021-yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti kamida 5 foiz o‘sishi maqsad qilingan. Biroq, global iqtisodiyotdagi noaniqlik uzoq davom etishi mumkinligi iqtisodiy o‘sishning qo‘sishma zaxiralarini topish va safarbar qilishni talab etmoqda. Shu bois Prezidentimiz barcha darajadagi rahbarlarga o‘z sohasi bo‘yicha mahallalardagi holatni o‘rganish, “o‘sish nuqtalari”ni aniqlab, ularni rivojlantirish vazifasini qo‘ymoqda. Iqtisodiy kompleks vakillarini mahallaga tushirib, vertikal tizimni, barcha organlar faoliyatini o‘zaro muvofiq yo‘lga qo‘yish kerakligi ta’kidlandi.[9.uzsm.uz] Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “mahalla raisi islohotchi” tamoyili asosida mahallalarning imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda “Mahallabay” ishlash tizimi orqali kambag‘allikni qisqartirish, har bir mahallalarning o‘sish nuqtalarini aniqlash bo‘yicha bergen tavsiyalari yuzasidan olib borilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda minglab fuqarolar turmush tarzları farovonlashib bormoqda. “Mahallabay” ishlash tizimga jalb qilinadigan mutaxassislarining bilim va imkoniyati masalasiga alohida e’tibor qaratilgan holda, 20 mingdan ortiq xodimni o‘qitib, ularga masalani joyida hal etish bo‘yicha barcha vakolatlarni berish muhimligi qayd etildi. Davlat boshqaruvi akademiyasiga mahalla raislari va mazkur tizimda ishtirok etadigan barcha xodimlar uchun o‘quv kurslar tashkil qilish, buning uchun maxsus dastur va qo‘llanmalar ishlab chiqish vazifikasi yuklatildi. “Mahallabay” ishlash tizimi mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini (ixtisoslashuv yo‘nalishini) tahlil qilish, oilalarining daromad manbalarini hamda daromadli mehnatga bo‘lgan intilish va ehtiyojlarini o‘rganish, ishsiz mahalla aholisini kasb o‘rgatuvchi kurslarga yo‘naltirish va ishlash borasida tavsiyalar berish, har bir mahallaning mavjud imkoniyatlarini (bo‘sh turgan binolar, yer maydonlari) o‘rganish, mahallada yangi tadbirkorlik loyihibarini amalga oshirishda ko‘maklashish va shu orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, mahallaning tadbirkorlik salohiyatini oshirish reja- grafigini ishlab chiqish kabi vazifalar bugungi kundagi g‘oyat dolzarb yumushlar ekanligini ko‘rsatdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mahalla institutini alohida bir tashkiliy tuzilmaga aylantirish maqsadida “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil18- fevraldaggi PF 5938- son farmoni qabul qilindiki, uning to‘liq

ijrosini ta`minlash Yangi O`zbekiston istiqbolini yaratishda yana bir tamal-toshi vazifasini bajaradi.

Xulosa va takliflar. O`zbekistonda, ko`p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan bir talay ishlarni amalga oshirish lozim:

1.Ko`p millatli mahallalar faoliyatini yo`lga qo`yish chog`ida milliy madaniy markazlar va do`stlik jamiyati bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada kuchaytirish lozim.

2. “O`zbekiston - yagona Vatan” shiori ostida ko`p millatli mahallalar o`rtasida madaniy-ma`rifiy tadbirlarni tashkil etish zarur.

3. Mahallalar qoshida millatlararo totuvlik aks etgan bannerlarni joylashga e`tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

4. Ko`p millatli mahallalar faoliyatini yuritishga oid yaxlit qonun hujjatlarini ishlab chiqish zarur.

5. Milliy madaniy markazlar faoliyatiga oid kompleks qo`llanma ishlab chiqish.

6. “Mahallabay” ishlash tizimini rivojlantirishning uzoq yillik strategiyasini ishlab chiqish lozim.

Bir so`z bilan xulosa o`rnida aytganda, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning fuqarolik jamiyatini barpo etishda takrorlanmas institut-mahallalarga berayotgan e`tibor tufayli davlat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik yaqqol ko`rinadi, bu esa ko`p millatli O`zbekistonda demokratik prinsiplar amalda ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, “Mahallabay” ishlash tizimi orqali kambag`allikni kamaytirish maqsadida yangi ish o`rinlari yaratish istiqbollari aniq ravshan ko`zga tashlanadi. Muxtasar qilib aytganda, “Yangi O`zbekiston- yangi mahalla” tizimini fuqarolik jamiyatining ajralmas qismiga aylanib borayotganligini e`tirof etish, bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig`inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo`yicha mustaqilligini ta`minlash, o`zini o`zi boshqarish tizimida ortiqcha bo`g`inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig`inlarini mahalla fuqarolar yig`inlariga birlashtirish va bo`lish yo`li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish nihoyatda e`tibor talabdir.

Ko`p konfessiyali mahallalarga bo`lgan e`tiborning yuqoriligiga qarab demokratik tamoyillar va umume`tirof etilgan qadriyatlar qay darajada ekanligiga qarab baho beriladi. Zero, 2022 yil “Inson qadrini ulug`lash va faol mahalla yili” millatlararo totuvlik demokratiya uchun dastur-ilamal bo`lib xizmat qiladi.

Foydalilanilgan Adabiyotlar:

1. “Yangi O`zbekiston strategiyasi” Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent. O`zbekiston nashriyoti, 2021 yil.
2. “Jamiyat rivojida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish.” R.Murtazayeva, A.O`tamurodov, O.Musayev, D.Inoyatova. Toshkent. Turon-iqbol 2018 yil.
3. “Mahalla-fuqarolar o`zini-o`zi boshqaruvi institutining noyob namunasi. Ilmiy to`plam.Toshkent. Mumtoz so`z” 2016 yil.
4. “Fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatining normativ-huquqiy tahlili.” Z.Ro`ziyeva, G.Ismailova Toshkent. 2016 yil.
5. “Mahalla boshqaruvi” qo`llanma Toshkent. 2006 yil. CAE.
6. Azimjonovich R. I. ESTABLISHMENT OF THE MINISTRY OF COMMUNITY AND FAMILY SUPPORT IS AN IMPORTANT STEP IN SELF-GOVERNMENT //Epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) Impact Faktor: 7.032. Indiya. 2020 June. P. 161. – 2020. – T.

- 163.
7. Azimjonovich R. I., Obidjonovich E. U. MAHALLA INSTITUTE-THE FOUNDATION OF CIVIL SOCIETY OF UZBEKISTAN.
 8. Тожибоев У. У., Рахимов И. А. ДУХОВНЫЕ ОСНОВЫ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА //Актуальная наука. – 2019. – №. 11. – С. 137-140.
 9. Рахимов И. А. ВЕЛИКИЙ ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ, КОТОРЫМ ВОСХИЩАЕТСЯ МИР //Современные научные исследования: тенденции и перспективы. – 2020. – С. 93-102.
 10. Рахимов И. А. ОСНОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА МАХАЛЛА //Инновационное развитие современной науки. – 2021. – С. 32-37.
 11. Рахимов И. А. ИЗ ИСТОРИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ПРОЦЕДУР ТУРКЕСТАНСКИХ МЕСТНЫХ ИНВЕСТОРОВ В КОНЦЕ 19 И НАЧАЛЕ 20 ВЕКОВ //Актуальные вопросы современной науки и практики. – 2020. – С. 111-115.
 12. 12.Raximov I. A. ESTABLISHMENT OF THE MINISTRY OF COMMUNITY AND FAMILY SUPPORT IS AN IMPORTANT STEP IN SELF-GOVERNMENT //Современная наука: актуальные проблемы, достижения и инновации. – 2020. – С. 215-222.
 13. Rakhimov I., Abdullayev S. UZBEK NEIGHBOURHOODS: HISTORY AND NOWADAYS //Вестник Ошского государственного университета. – 2019. – №. 3. – С. 34-37.
 14. Rahimov I. NEIGHBORHOOD DEMOCRATIC MATERIAL //Обмен научными знаниями в условиях глобализации. – 2021. – С. 31-34.
 15. Рахимов И. А., Нурматов Л. О. Ў. КЎП МИЛЛАТЛИ, КОНФЕССИЯЛИ МАҲАЛЛАЛАР ДЕМОКРАТИЯНИНГ БОШ МЕЗОНИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 1068-1074.
 16. РАХИМОВ И. А. ДЕЙСТВИЯ УЗБЕКИСТАНА В УРЕГУЛИРОВАНИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В АФГАНИСТАНЕ //НАУЧНОЕ ЗНАНИЕ СОВРЕМЕННОСТИ Учредители: Индивидуальный предприниматель Кузьмин Сергей Владимирович. – №. 11. – С. 5-11.